E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

MATNNI TAHLIL QILISH ORQALI YOSHLARDA MUALLIFLIK HUQUQI TO'G'RISIDA KO'NIKMA HOSIL QILISH

To'xtayeva Nilufar Rasul qizi
SamDU Kattaqo'rg'on filialiPedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabasi

Abdiyeva Zuxra Xolbozor qizi
SamDU Kattaqo'rg'on filialiPedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab darsligida keltirilgan "mualliflik huquqi" matni orqali mantiqiy fiklashni oshirish,matnni morfologik tahlil qilish, lug'at bilan ishlash ko'nikmasini oshirishyuzasidan topshiriq va misollar berildi. Maqolada maktab ona tili darsliklarida keltirilgan matnlar orqali o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mustaqil mulohaza qilish va bu orqali mualliflik huquqini tanishga asoslangan.

Kalit so'zlar: Matn, mualliflik huquqi, morfologiya, lug'at, tahlil qilish, darslik, mantiqiylik, ko'nikma.

Аннотация: В данной статье даны задания и примеры по развитию логического мышления, морфологического анализа текста, умения работать со словарем посредством текста "авторское право", представленного в школьном учебнике. Статья основана на логическом мышлении учащихся через тексты, представленные в школьных учебниках по родному языку, на самостоятельном рассуждении и признании через него авторского права.

Ключевые слова: Текст, авторское право, морфология, лексика, анализ, учебник, логика, навыки.


Annotation: This article provides tasks and examples for the development of logical thinking, morphological analysis of the text, the ability to work with a dictionary through the text "copyright", presented in a school textbook. The article is based on students' logical thinking through texts presented in school textbooks in their native language, on independent reasoning and recognition of copyright through it.

Keywords: Text, copyright, morphology, vocabulary, analysis, textbook, logic, skills.

O'zbekiston ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'qish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlariniyangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. O'tgan o'n yil ichida, tabiiy tilda ishlash va so'z sohasiga bo'lgan qiziqish toborao'sishi kuzatilmoqda, ammo ijtimoiy tarmoqlarda matnlarni qayta ishlashga va ular orqali mantiqiy fikrlashni oshirishga oid monitoring yangi dasturlari paydo bo'lsa-da, ko'p muammolar hali ham yechimini topmasdan qolmoqda. Bularni barchasi bizni matnni qayta ishlash, matnni qayta tahlil qilish, matn orqali huquqiy ong, mualliflik huquqini shakllantirish va matn tahlili vositasida mantiqiy fikrlashni oshirishga bo'lgan qiziqishimizni yangidan yangi ihtirolar qilishga undaydi. Keyingi yillarda yoshlarda mantiqiy fikrlashni oshirish, erkin fikrlilikka o'rgatish maqsadida umumiy o'rta ta'lim ona tili darsliklarining ko'p qismini matn va matn tahlili tashkil qilmoqda.Hattoki matn bilan alohida ishlash uchun Oliy ta'limda maxsus fan sifatida "Matn va lug'at ustida ishlash" fani ham kiritilgan. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarda shu fanning asosiy masalalari, mavzulari, umumlashmalari haqida tasavvur hosil qilishdan iborat. Muayyan matnni tahlil qilish orqali matn asosida shakllangan fikrni bayon qila olish ko'nikmasini shakllantirish, matnda uchragan notanish so'zlar izohini lug'atlardan izlash ko'nikmasini rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsligida berilgan matnlarni

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

tahlil qilishda topshiriqlar ishlab chiqish malakasiga ega bo‘lish. Darslikda berilgan matnlar rang-barang rasmlar, mantiqiy savollar, kreativ testlar bilan boyitilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, matnlar bir-biridan qiziq mavzularda tanlangan hamda bir mavzu doirasida bir-biriga yaqin, birining mazmunini to‘ldiruvchi boshqa matn ham keltirilgan. Bu esa talabalar va o‘quvchi yoshlarni fikrlashga undovchi omillardan biri.Intelliktual faoliyat mahsullari orasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tubdan ajralib turadi. Bu alohidalik ijodkor-muallif huquqiy maqomida ham, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyekti bo‘lgan fan, adabiyot, san’at asarlari, ijrochilik faoliyati huquqiy rejimida ham o‘z ifodasini topgan.jahonni turli mamlakatlr o‘rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar o‘sib borgani sayin bir mamlakatdagi ijodkorlar asarlaridan boshqa mamlakatlardagi kishilar foydalanish imkoniyatini oshirib bormoqda, bu esa mualliflik va turdosh huquqlar dunyoning ko‘p mamlakatlarida bir xilda tartibga solinishiga bo‘lgan zaruriyatni vujudga keltirmoqda. Bundan kelib chiqib quyida yoshlarni mualliflik huquqini oshirish va mantiqiy fikrlashni o‘stirishga doir maktab ona tili darsligida keltirilgan matnlar asosida topshiriqlar ishlab chiqildi.



Mualliflik huquqi

Mualliflik huquqi — keng ma’noda — fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, foydalanish va qonuniy himova qilishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar vig‘indisi; fuqarolik huquqining bir bo‘limi. Tor ma’noda — asar muallifiga tegishli bo‘lgan va qonunlarda mustahkamlanib qo‘vilgan shaxsiy va mulkiy huquqlar tizimini tashkil etadi.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natiiasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalash usuli (qo‘lvozma, tasvir, audio, video vozuv, haykal va h. k.)dan qat’i nazar, tatbiq etiladi. Barcha turdagi kompyuterlar uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari ham mualliflik huquqi obyekti hisoblanadi.

Muallif o‘z asariga nisbatan quyidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega: muallif sifatida e’tirof etilish huquqi; asarni o‘z ismi, taxallusi voki anonim tarzda e’lon qilish huquqi; asar daxlsizligiga bo‘lgan huquq; asardan har qanday shaklda va usulda fovdalanish huquqi; asarni e’lon qilish huquqi; asardan fovdalanilganlik uchun haq olish huquqi; asarni tasarruf qilish huquqi.

Asardan muallif voki uning merosxo‘ri bilan mualliflik shartnomasi tuzish orqaligina fovdalanish mumkin. Chop etilgan begona asardan muallifning roziligisiz va mualliflik haqini to‘lamagan holda shaxsiy maqsadlarda fovdalanishga, basharti bunda asardan fovdalanishga ziyon vetmaydigan va muallifning qonuniy manfaatlariga putur vetmaydigan bo‘lsa, vo‘l qo‘viladi. Asardan muallifning ism-sharifini va olingan manbani ko‘rsatgan holda ilmiy tadqiqotlarda, ta’lim va o‘quv nashrlarida, axborot maqsadlarida iqtibos olishga ruxsat beriladi.

Mualliflik huquqi asar varatilgan paytdan boshlab muallifning butun havoti davomida va vafotidan kevin 50 vil davomida amal qiladi. Muallif vafotidan kevingi mualliflik huquqi uning merosxo‘rlariga tegishli bo‘ladi va meros bo‘vicha bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tadi. Amal qilish muddati tugaganidan kevin asar ijtimoiy boylikka avlanadi, va’ni har qanday shaxs mualliflik haqini to‘lamagan holda erkin fovdalanishi mumkin bo‘ladi.

1 – topshiriq.Matndaginotanishso‘zlarniizohini toping.

HUQUQ - [a. – «haq(q)» s. ningko'pl.] 1 - huq. Davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini va b. ni tartibga soladigan qonun-qoidalar.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

TARTIB - [a. – tayyorlash, tashkiletish; intizom; moyillik, rag'bat; reja]1 Ish-harakat, tadbir-choravash.k. ning amalga oshuvida rioya qilinadigan ma'lumizchillik, reja, qonun-qoida va shu qonun-qoidalarga javob beradigan holat.

FAN - [a. – san'at, mahorat; erkinkasb; ilm, bilim; tarmoq]1 Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi.

DAXLSIZ - 1 Ma'lum birnarsaga bevosita aloqasi, bog'liqligi bo'lmagan, daxli yo'q, taalluqliemas.

MAQSAD - [a. – niyat, yuqori tilak; intilish] 1 Erishish, amalgaoshirishuchunko'zdatutilgannarsa, murod, muddao.

TADQIQOT - [a. – «tadqiq» s. ko'pl.]1 Tadqiqishi, tekshirish, o'rganishishi.

IQTIBOS - [a. – qisqartirish, toraytirish; qo'lgakiritish; ko'chirmaolish; ko'chirma, dalilkeltirish]esk. - kt. Ko'chiribolingan, olingannarsa.

MUALLIF - [a. – yaratuvchi, ijodkor, avtor] kt. Birorasar, loyiha, kashfiyotvash.k. niyaratganshaxs.

IJTIMOIY - [a. – jamoa, jamiyatgaoid]1 Insonvajamiyathayotigaoid. Ijtimoiytuzum. Ijtimoiytaraqqiyot. Ijtimoiyishlabchiqarish.

MUALLIF - [a. – yaratuvchi, ijodkor, avtor]. Birorasar, loyiha, kashfiyotniyaratganshaxs.

2 – topshiriq.Ushbumatndagimustaqilsoʻzlarniturkumgaajratibjadvalkoʻrinishidayozing.

Ot	Sifat	Ravish	Olmosh	Son	Fe’l
Mualliflik *Ma’no* *Asar* *Fan* *Adabiyot* *Himoya* *Munosabat* *Tartib* *Norma*	*Kenguy* *Qonuniy* *Huquqiy* *Tor* *Tegishli* *Shaxsiy* *Mulkiy* *Ijodiy* *Nomulkiy*	*Keyin* *Payt* *Davomida*	*Barcha* *Har qanday* *Uning* *Oʻz* *Barcha*	*Ellik* *Bir* *Ikkinchi*	*Yaratmoq* *Foydalanish* *Himoyaqilish* *Vujudgakeladigan* *Tartibgasoladigan* *Mustahkamlanib* *Boʻlgan* *Qoʻyilgan* *Tashkiletdi*

3-topshiriq. Matn mazmuniga mosini tanlang.

Birovnong qoʻli bilan tikan yulish oson.
Oshing halol boʻlsa, koʻchada ich.
Pora doʻzax eshigini ochar,
Oʻzini bilgan undan qochar
Tekinning minnati koʻp,
Mehnatning – ziynati.
Mehnating halol qilsang,

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Huzurini ko‘rasan.

4-topshiriq. Matnmazmunigamossarlavhatanlang.

Mualliflik huquqinima?
Mualliflikshartnomasi
Asar daxlsizligiga bo‘lgan huquq
Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi

5-topshiriq. Matndagi kalit so‘zlarni ajrating.

Mualliflik huquqi, adabiyot, ijod, shaxsiy manfaat, shartnoma, huquq, fan, ijtimoiy, iqtibos, maqsad, tartib, tadqiqot, asar, qonun, taxallus, axborot, boylik, ijtimoiyboylik…

6-topshiriq. Matnxulosasi.

Mualliflik huquqi asar daxlsizligini ta’minlaydi. Ya’ni mualliflik huquqidan shaxsiy manfaatlarda foydalanish mumkinemas. Shoir, yozuvchilar mualliflik huquqi tufayli she’r va asaridan moddiy manfaat ko‘rishi mumkin. Hechkim boshqa bir insonning ijodini o‘zlashtiri bololmaydi. Bu esa asar daxlsizligini ta’minlaydi. Barcha narsa qonun bilan himoyalangan. O‘z huquqini bilgan kishi o‘z haqini talab qilaoladi.

7-topshiriq. Matngamosrasmtanlang.



A **B** **C** **D**

8-topshiriq.Matnga qarang, diqqat bilan o‘qing va yuqoridagi matn bilan taqqoslang.

Mualliflik huquqi (inglizcha- *copyright*) g‘oya (fikr) yoki ma’lumotning ma’lum bir ko‘rinishdagi ifodalanishini tartibga soluvchi majmuidir. Umumiy qilib aytganda, so‘zma-so‘z „ko‘chirish (nusxaolish)ga bo‘lgan huquq“dir. Asosan, bu huquqlar cheklangan muddatli bo‘ladi. Mualliflik huquqi belgisi © bo‘lib, ba’zibir yurisdiksiyalarda qo‘shimcha ravishda (c) yoki (C) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Mualliflik huquqi „asarlarning“ kengturdagi kreativ, intellektual, artistic shakllarida namoyon bo‘lishi mumkin.

Mualliflik huquqi bosma mashina ishlab chiqilib, jamoat orasida ko‘proq o‘qiyoladigan insonlar ko‘paymagunicha paydo bo‘lmagan. Huquqiy konseptsiya sifatida mualliflik huquqi tarixi o‘n sakkizinchi asrda bosmaxonalar of Anne) eng dastlabki haqiqiy mualliflik huquqi qonuni bo‘lib, bosmaxonalarga ma’lum muddatga huquqlar bergan.

9-topshiriq. Ushbu fikrlarni diqqat bilan o‘qing va to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

1. Mualliflik huquqi umrbod daxlsiz bo‘ladi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

2. Mualliflik huquqi uchun haq to‘lasa ham, to‘lamasligi ham mumkin.

3. Mualliflik huquqini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqa kishiga o‘tishi mumkin.

4. Mullif vafotidan 50 yilo‘tib, amal qilish muddati tugaganidan so‘ng asar ijtimoiy boylikkka aylanadi undan erkin foydalanish mumkin.

5. Muallif so‘zi, she’ri, asarlari va qo‘lyozmalaridan iqtibos olishga ruxsat beriladi

Xulosa qilib aytganda, matn tahlil qilishda matn turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, matnni tahlil qilish texnikasi, matnni tahlil qilishda lug‘atlardan foydalanish tartibi, matn tahlilida til vositalarining o‘rni beqiyos muhim omillardan biri hisoblanadi. Grammatik mavzularni muayyan matn orqali tushuntirish hamda lug‘at bilan ishlash tartibini tushuntirish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini oshirish ancha qulay bo‘ladi. Maktab darsligidagi matnlar orqali yoshlarda fikrlash qobiliyati kengaytirish, erkin fikrlilikka undash asosiy maqsadlardan biridir. Matn orqali mantiqiy fikrlash o‘sib borar ekan bu orqali ularda mualliflik huquqini tanitish ham muhimdir.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf uchundarslik. Toshkent-2022. Bahtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahimov, Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov, Saodat Atoyevalar hammuallifligida.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati

3. So‘zning kelib chiqishini ko‘rsatuvchi etimologik lug‘atlar (Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, 2000)

4. Yo‘ldoshev Q, Yo‘ldosheva M. “Badiiy tahlil asoslari”. (O‘quv qo‘llanma – T.Kamalak.2016

5. https://xs.uz

WORDLY
KNOWLEDGE